

# **INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Universitiy of science and technologies  
“Pedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi  
Xaydarova Nilufar Voxid qizi  
204-guruh talabasi Ismagilova Adiba Alisherovna**

## **ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada Innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta’limni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnalogiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish to‘g‘risidagi umumiy xulosalarga bag‘ishlanadi.

**Tayanch so‘zlar:** Metod, innovatsion yondashuv, pedagogik texnalogiyalar, innovatsion texnalogiyalar, pedagogik o‘yinlar (didaktik o‘yinlar).

## **АННОТАЦИЯ:**

В данной статье на основе инновационного подхода начальная и дошкольная

совершенствование науки, образования на основе современных педагогических технологий организация процесса, использование инновационных методов обучения и будущее существенно повысить качество профессиональной подготовки учителей начальных классов будет посвящено общим выводам об увеличении.

**Ключевые слова:** Разум, инновационный подход, педагогические технологии, инновационный технологии, педагогические игры (дидактические игры).

## **ABSTRACT:**

In this article, based on an innovative approach, primary and preschool improvement of science, education based on modern pedagogical technologies

process organization, use of innovative teaching methods and the future significantly improve the quality of professional training of primary school teachers

will be devoted to general conclusions about the increase

**Key words:** Mind, innovative approach, pedagogical technologies, innovative technologies, pedagogical games (didactic games).

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va yetuk shaxs qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim tarbiyachilari, boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish va ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish

masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi.

*O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lif mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.[2]*

Ta'lif tizimidagi har qanday o'zgarish - bu pedagogik innovatsiyadir. Pedagogik innovatsiya pedagogik yangiliklarni baholash, uni pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirilishiga erishish, yangiliklarni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'lif sifatida qaraladi. Ta'lif tizimining samaradorligiga erishish uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish kerak.[3]

Innovatsion texnologiya - bu inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyotni ta'minlash va samaradorlikni oshirish uchun yangi narsalarni yaratish yoki mavjudini takomillashtirish texnikasi va jarayoni. Texnologiya so'zining lug'aviy manusiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu so'z yunonchadadan olingan bo'lib "tehnos"- mahorat, sa'nat "logos"- ta'lif, fan ma'nolarini bildiradi. Bundan ko'rinish turibdiki, texnologiya so'zi boshqa so'zlarga qo'shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini, tajribasini oshirish vazifalarini bajaradi. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi [mustaqil ravishda bilim oladi](#), o'rganadi, o'zlashtiradi.[7]

Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o'qituvchi emas, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirilishini o'qituvchi o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Dars davomida o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishish ya'ni darsni qiziqarli tashkil qilishda turli didaktik o'yinlar, metodlar va multimedialardan foydalanishi kerak.[5]

Bundan ko'rinish turibdiki boshlang'ich va maktabgacha ta'lif ya'nada takomillashtirishda innovatsiyaning ro'li muximdir.

Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'limgan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lif tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy erish zamonaviy bolalar bog'chasi va maktablarini tashkil etishni taqozo etadi. Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich va maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif tashkil etish bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik muktab yoshidagi bolalarda ta'lifning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni, o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lif jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.[1] Buning uchun o'qituvchidan yuksak bilim va malaka talab etiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'lifining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Bunda esa maktabgacha ta'lif vaboshlang'ich maktab tashkilotlari muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar faoliyati quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqr kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;
- kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish;
- sog'lijni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Bu yo'nalishlarga amal qilish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish imkonini beradi. Misol uchun, mustaqil ta'lim vositasini olaylik. Pandemiya kabi murakkab sharoitlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayoni hamisha va har qanday vaziyatda mustaqil ta'limga tayyor turishi kerak. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

*Xulosa:* Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil fikrlay olish va o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi. Innovatsion yondashuv asosidagi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslari o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko'rindi. Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhitini yaratishidadir. O'qitishning turli texnologiyalari pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmi ko'rinishdagi rebuslar o'quvchilarda o'qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko'nikmasini shakllantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o'qituvchi emas, o'quvchilarning xam xizmati katta bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limninig integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
2. G.Saidova N.Avliyokulova "Jamiyat va innovatsiyalar" T., 2022y
3. X.Aliyeva "Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish" 2022y
4. F.Xodjayev, T.Jumaniyozova "Ta'limda innovatsiya" 2020y
5. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.– T., 2006.
6. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar – T.: "Moliya", 2003
7. Ishmuhamedov R.J. va boshqalar. Ta'limda innovason texnologiyalar.-T.: 2008

#### **TAVSIYA ETILADIGAN INTERNET RESURSLARI:**

[www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)

[w.w.w./pedagog/uz](http://w.w.w./pedagog/uz)